



**FOREX CLUB INTERNATIONAL LLC**

**MAXFIYLIK SIYOSATI,**

**MAXFIYLIKNI ICHKI NAZORAT QILISH SIYOSATI VA COOKIE (maxsus informaciya bilan ishlashga mo‘ljallangan fayllar) FAYLLARINI ISHLATISHGA QARATILGAN SIYOSAT**

**2024 yil, Oktyabr oyi**

**FOREX CLUB INTERNATIONAL LLC**, bu Sent – Vinsent va Grenadinlar orollari davlati qonunchiligiga muvofiq faoliyat yuritadigan yuridik shaxs, 1277 LLC (MCHJ) 2021 raqami bilan quydagi manzilda ro'yxatdan o'tgan: Moliyaviy xizmatlar Markazi, a/q (abonent qutisi) raqami 1823, Stony Ground, Kingstown, VC0100, Sent-Vinsent va Grenadinlar orollari davlati.

**SARLAVHA:**

<b>1. MUQADIMA</b>	<b>2</b>
<b>2. MAXFIYLIK SIYOSATI VA ICHKI NAZORAT SIYOSATI</b>	<b>2</b>
<b>2.1. BIZ TO'PLAGAN MA'LUMOTLAR</b>	<b>2</b>
<b>3. SIZNING XIZMAT MA'LUMOTLARINGIZDAN QANDAY FOYDALANAMIZ</b>	<b>4</b>
<b>4. SHAXSIY MA'LUMOTLARINGIZ VA INFORMATSIYANI KIMGA BERAMIZ?</b>	<b>5</b>
<b>5. YOZUVLARNI SAQLASH</b>	<b>6</b>
<b>6. COOKIE FAYLLARI</b>	<b>7</b>
<b>7. KONFEDENTSIAL (MAXFIY) MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH</b>	<b>7</b>
<b>8. SIZNING ROZILINGINGIZ</b>	<b>8</b>
<b>9. SO'ROVLAR VA SHIKOYATLAR</b>	<b>8</b>

## 1. MUQADIMA

**FOREX CLUB INTERNATIONAL LLC** (bundan keyin matnda "Biz", "Kompaniya", deb nomlanamiz), Sent – Vinsent va Grenadinlar orollari davlati qonunchiligiga muvofiq faoliyat yuritadigan yuridik shaxs, 1277 LLC (MCHJ) 2021 raqami bilan quydagи manzilda ro'yxatdan o'tgan: Moliyaviy xizmatlar Markazi, a/q (abonent qutisi) raqami 1823, Stony Ground, Kingstown, VC0100, Sent-Vinsent va Grenadinlar orollari davlati.

Kompaniya, bizning hozirgi va kelajakdagi mijozlarimizning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi va xavfsizligiga ustuvor ahamiyat beradi. Kompaniya mijozdan olingan barcha ma'lumotlarning xavfsizligini va maxfiyligini ta'minlashga intiladi. Ushbu maxfiylik Siyosatda, Bizda, ichki maxfiylik nazorati, maxfiylik siyosati, cookie – fayllarga qaratilgan siyosatning (bundan keyin matnda "Siyosat", deb nomlaymiz) va Kompaniya mijozning shaxsiy ma'lumotlarini to'plashini, ishlashini va himoya qilishini qanday qilib tashkillashtirilgani tasvirlangan.

Shaxsiy kabinetni ro'yxatdan o'tkazish orqali, mijoz, Kompaniya xizmatlarini ko'rsatish uchun, ushbu hujjatning mazmunini o'qiganligini va qabul qilganligini tasdiqlaydi va shu bilan Kompanianing onlayn savdo tizimida, Kompaniya xizmatlaridan foydalanish uchun, ma'lum shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashiga rozilik beradi.

Biz, sizdan, ushbu maxfiylik bildirishnomasini diqqat bilan o'qib chiqishingizni so'raymiz, chunki biz sizga onlayn ma'lumotlaringizning maxfiyligi biz uchun juda muhimligini bildirmoqchimiz. Bildirishnomada biz kim ekanligimiz haqida muhim ma'lumotlar ham mavjud; shaxsiy ma'lumotlarni qanday va nima uchun to'plashimiz, saqlashimiz, ishlashimiz va uzatishimiz; Sizning shaxsiy ma'lumotlaringizga bo'lgan huquqlaringiz va agarda, Sizda, qandaydir savollaringiz, shikoyatlaringiz bo'lsa, biz bilan qanday bog'lanish usullari ko'rsatilgan.

## 2. MAXFIYLIK SIYOSATI VA ICHKI NAZORAT SIYOSATI

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va qayta ishlashning amaldagi qoidalariga muvofiq shaxsiy ma'lumotlarning "boshqaruvchisi" vazifasini bajaruvchi Kompaniya o'z mijozlaridan o'z faoliyatini olib borish uchun zarur bo'lgan shaxsiy, maxfiy va shaxsiy nodavlat ma'lumotlarni (bundan keyin matnda "nodavlat ma'lumotlar", deb nomlansin) muntazam ravishda to'playdi va o'z mijozlariga yuqori sifatli xizmatlarni ko'rsatishga intilib, o'z faoliyatini amalga oshiradi.

### 2.1. BIZ TO'PLAGAN MA'LUMOTLAR

Mijoz sifatida xizmatlarimizga obuna bo'lishingiz jarayonida sizdan ma'lum shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etishingiz talab qilinadi. Ma'lumotlar ma'muriy, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq va / yoki qonuniy maqsadlar uchun to'planadi va saqlanadi.

Biz shaxsiy ma'lumotlarni to'plashni biznesimizni boshqarish va Sizga yuqori sifatli xizmatlarni

taqdim etish uchun tartibga solinadigan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan narsalar bilan cheklaymiz.

Bunday ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

- shaxsiy ma'lumotlaringiz, shu jumlada, ismingiz va familiyangiz, tug'ilgan kuningiz, milliy identifikatsiya raqamingiz, elektron pochta manzilingiz va telefon raqamingiz kabi ma'lumotlar;
- moliyaviy ma'lumotlar, savdo tajribangiz va ish bilan ta'minlanganingiz to'g'risidagi ma'lumotlaringiz ham maqsadga muvofiqligini baholash uchun to'planadi.

Biroq, "Kompaniyaga taqdim etilgan ma'lumotlar" atamasining ma'nosi bu bilan cheklanmaydi. Bunga Sizning faoliyatingizni kuzatish natijasida olingan shaxsiy ma'lumotlar ham kiradi (masalan, qurilma yoki xizmatdan foydalangan davrda to'plangan ma'lumotlar).

Ya'ni:

- veb – saytdan foydalanish tarixi yoki (veb – saytda) qidiruv faoliyati, veb – saytimizga tashriflaringiz, shu jumladan aloqa ma'lumotlari;
- trafik va joylashuvningiz to'g'risidagi ma'lumotlar;
- veb – sayt trafiki tuzilishi, shu jumladan IP – manzili, operatsion tizimingiz va brauzeringiz turi, sistemani ma'murlash haqida ma'lumotlarni va umumiyligida boshqa ma'lumotlarni reklama beruvchilarimizga etkazib berish uchun. Ushbu turdagiga ma'lumotlar faqat niqoblangan yoki umumlashtirilgan shaklda qo'llaniladi, ya'ni ushbu ma'lumotlar orqali individual foydalanuvchini tanib bo'lmaydi. Ushbu ma'lumotlar orqali shaxsni aniqlab bo'lmaydi;
- Siz va biz o'rtamizdagi aloqalar chat, elektron pochta, yoki telefon qo'ng'irog'lari orqali amalga oshiriladi.

Biz to'plagan ma'lumotlar turlari, shuningdek ularni yig'ish maqsadlari quyida keltirilgan:

<b>Shaxsiy ma'lumotlar turi:</b>	<b>Maqsad:</b>
shaxsiy ma'lumotlar turlari bu ismingiz va familiyangiz, tug'ilgan sanangiz va manzilingiz kabi ma'lumotlar.	Pulni legallashtirishga qarshi kurash (AML) majburiyatlarimizni va "Mijozingizni biling" (KYC) amaliyotlari bo'yicha boshqa me'yoriy majburiyatlarni bajarish va mijozlarni kompleks tekshirish maqsadida. Bizning verifikatsiya jarayonimiz yordamida shaxsingizni tekshirish uchun.
Contakt uchun ma'lumotlar (elektron pochta manzili va telefon raqami).	Taqdim etilayotgan xizmatlar va me'yoriy majburiyatlarimizni bajarish, shuningdek, me'yoriy va muvofiqlik majburiyatlarimizga rivoja qilish bo'yicha siz bilan bog'lanish imkoniyatini ta'minlash uchun.
Ish bilan ta'minlash to'g'risidagi	"Mijozingizni biling" va AML amaliyotlarini bajarish

ma'lumotlar, moliyaviy ma'lumotlar, tegishli ta'lim va savdo tajribasi to'g'risidagi ma'lumotlar.	uchun.
Etnik kelib chiqishi, fuqaroligi va ijtimoiy sug'urta raqamlari yoki milliy shaxsiy guvohnoma va pasportning raqamlari.	"Mijozingizni biling" tamoyiliga, majburiy hisobotga va pul yuvishga qarshi kurashish bo'yicha boshqa majburiyatlarga rioya qilish uchun va amaliyotlarini bajarish uchun..

Kompaniya ushbu ma'lumotlarni himoya qilishni o'z zimmasiga oladi, shu qatorda uning maxfiyligi saqlanib qolinishini va ruxsatsiz qo'lga kiritish / foydalanish yoki uning noto'g'ri oshkor etilishining oldini olishni o'z zimmasiga oladi.

Agarda Mijoz, Kompaniya tomonidan, o'zining yopiq ma'lumotlarini qayta ishlashini istamasa, bu xolda, Mijoz, elektron pochta orqali, quydagi elektron manzilga: [support@help.fxclub.org](mailto:support@help.fxclub.org), shu masalaga tegishli xabarni yuborish orqali, Kompaniyani yozma ravishda xabardor qilishi kerak, yoki ushbu hujjatni oxirida ko'rsatilgan manzilga, Kompaniyaning ro'yxatdan o'tgan ofisiga, maxsus, ro'yxatdan o'tgan xat orqali xabar berishi kerak.

Ammo bu xolda, shuni ta'kidlash kerakki, agarda Mijoz, Kompaniya tomonidan, o'zining yopiq ma'lumotlarini qayta ishlashini istamasa va bu harakatlarni rad etishni istasa, Kompaniya, Mijoz tomonidan so'rалган ma'lumotlar, xizmatlar va mahsulotlarni taqdim etishni davom eta olmaydi va Kompaniya, bu borada Mijoz oldida hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Kompaniya shaxsiy ma'lumotlardan faqat tijorat, biznes faoliyati yuritish uchun, yoki qonunda nazarda tutilgan hollardagina foydalanadi va boshqa hech qanday maqsadda foydalanmaydi, yoki oshkor qilmaydi.

Ushbu Siyosatimizda mahsulot va xizmatlarimizni so'ragan, ishlatayotgan, yoki olish uchun murojaat qilgan Mijozlar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni qanday himoya qilishimiz va ulardan qanday foydalanishimizni ko'rsatilgan. Ushbu Siyosat qoidalari Kompaniyaning amaldagi, sobiq va potentsial Mijozlariga nisbatan qo'llaniladi.

### 3. SIZNING XIZMAT MA'LUMOTLARINGIZDAN QANDAY FOYDALANAMIZ

Biz siz haqingizda mavjud ma'lumotlardan quyidagicha foydalanamiz:

- veb – saytimiz mazmunini eng samarali taqdim etish va uning mazmunini yaxshilash maqsadida;
- Siz bilan muloqot qilish, Siz bilan bog'lanish va bizdan so'ragan mahsulot va xizmatlarni taqdim etish uchun yoki Siz bilan bog'lanish mumkinligini ko'rsatgan bo'lsangiz, biz Sizni qiziqtirishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni va xizmatlarni taqdim etish va taklif etish uchun bog'lanishimiz mumkin;
- Sizga taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlarni boshqarish va nazorat qilish uchun;
- Sizni Mijoz sifatida xabardor qilish uchun, shunda Siz bizning xizmatlarimiz va tegishli masalalar bo'yicha o'zgarishlardan doimo xabardor bo'lishingiz uchun;

- xizmatlarimiz samaradorligini ta'minlash, takomillashtirish, sinovdan o'tkazish va monitoring qilish maqsadida;
- yangi mahsulotlar va xususiyatlarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish uchun;
- tashrif buyuruvchilarning umumiy sonini, trafikini va demografik strukturasi kabi ko'rsatkichlarni monitoring qilish uchun;
- diagnostika yoki texnologik muammolarni hal qilish uchun;
- Siz va biz o'rtamizdagi tuzilgan har qanday shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarimizni bajarish uchun;
- shuningdek, biz, Sizning ma'lumotlaringizdan, Sizni qiziqtirishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar haqida ma'lumot berish uchun, o'zimiz, yoki uchinchi shaxslarga va ma'lumotlarga ishlov beruvchilarimizga taqdim etgan xolda, foydalanishimiz mumkin, foydalanishga ruxsat berishimiz mumkin va shu xolda, ular yoki biz, shu maqsadlarni nazarda tutin, elektron pochta orqali, so'rov shaklida, Siz bilan bog'lanishimiz mumkin;
- veb-saytda yangilanish bildirishnomalarini yuborish uchun;
- axborot byulletenlarini yuborish, yoki sizni qiziqtirishi mumkin bo'lgan boshqa imkoniyatlar haqida ma'lumotlarni yuborish uchun. Agarda Siz, bunday ma'lumotlarni olishni xohlayotganingizni ko'rsatgan bo'lsangiz, biz sizga ushbu xabarlarni faqat o'sha paytda yuboramiz va agarda Siz bizga bunday xabarlarni olmaslik istagingizni ma'lum qilsangiz, biz Sizni ushbu istagingizni albatta hurmat qilamiz.

Agarda Siz bunday marketing materiallarini olishni istamasangiz, "obunani bekor qilish" tugmasini bosish orqali, yoki: [support@help.fxclub.org](mailto:support@help.fxclub.org) elektron pochtasiga maxsus so'rovnoma yuborish orqali, istalgan vaqtida marketing xabarlarini olishdan voz kechishingiz mumkin;

- axborot xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash uchun biz o'zimizdagi mayjud ro'yxatdan o'tish yozuvlarni ma'lumotlarini va ularni faoliyatini aktivligini ko'rib chiqish va shuningdek bizni o'zimizda mavjud tartibga solinadigan xizmatlarimizni xavfsizligini ta'minlash uchun foydalanamiz, masalan, shubhali faoliyat yoki shartlarimiz va siyosatlarimiz buzilishini tekshirish uchun. Biz, Sizni ro'yxatdan o'tish yozuvingizni, tegishli darajada himoya qilish uchun maxsus IT – mutaxassislarni, avtomatlashtirilgan tizimlarni va shifrlash kabi ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda himoya qilish uchun qattiq harakat qilamiz va ishlaymiz.

#### **4. SHAXSIY MA'LUMOTLARINGIZ VA INFORMATSIYANI KIMGA BERAMIZ?**

Biz Sizni ishontirib aytamizki, Sizning ma'lumotlaringiz, Sizning rozililingiz siz Kompaniyadan (Kompaniyalar guruhidan) tashqaridagi uchinchi shaxslarga ijara ga berilmaydi yoki sotilmaydi. Shuningdek, biz ma'lumotlarni qayta ishlovchilarimizga, biz taqdim etgan ma'lumotlardan qanday foydalanishlari va oshkor qilishlari bo'yicha, qat'iy cheklavlarni joriy qilamiz. Quyida biz ma'lumotlar bilan almashadigan tashqi tomonlar toifalari keltirilgan:

- **Xizmatlar ko'rsatish boyicha provayderlar (ishlovchilarga) va sherik (affilashgan)**

**hamkorlar:** biz ma'lumotni xizmat ko'rsatish bo'yicha provayderlarga (ishlovchilarga) va bizning faoliyatimiz uchun kompleks global qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan sheriklarga etkazamiz.

Bunga texnik infratuzilma xizmatlari, Servizlardan foydalanishni tahlil qilish uchun mavjud savdo platformalari (masalan, reklama va xizmatlarning samaradorligini o'lhash uchun), Mijozlarga xizmat ko'rsatish va qo'llab – quvvatlash uchun, o'quv materiallari va qo'llab – quvvatlash hizmatlarini etkazib berish uchun, Mijozlarni jalb qilishni rag'batlantirish uchun, Mijozlarning shaxsini tekshirish (shu jumladan siyosiy ahamiyatga ega shaxslarni va sanktsiyalar tizimini tekshirish uchun) uchun, dizayn va marketing kommunikatsiyalarini amalga oshirish uchun va veb – saytlarni boshqarish va nazorat qilish uchun, shuningdek biznesni rivojlantirish dasturlari va xizmatlarini boshqarish uchun.

● **O'lchov va tahlil (analitika) xizmatlari:** biz, bizni tahliliy xizmatlarimizdan foydalanadigan hamkorlar, misol uchun Google Analytics kabi partnyorlar bilan, hamkorlik qilamiz (faqatgina shaxsni aniqlashga imkon bermaydigan ma'lumotlar bilan cheklanilgan). Biz reklama, o'lchovlarimiz yoki tahlilarimiz bo'yicha shaxsiy ma'lumotlarni (masalan, ism shariflarni, yoki elektron pochta manzillarni) sheriklarimizga bermaymiz.

Kompaniya protsessorlarni tanlashda, xususan, tajriba, ma'lumotlarni boshqarish, ma'lumotlar xavfsizligi, kiber barqarorlik, ishonchlilik, texnik va tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish uchun resurslar nuqtai nazaridan tegishli kafolatlarni taqdim etishini ta'minlash uchun qattiq tekshiruvlar o'tkazadi. Bu ishlov berish jarayonining amaldagi qonunchilikka muvofiqligini va ma'lumotlar obyektlaridan huquqlarni himoya qilishni kafolatlaydi.

Kompaniya foydalanuvchi ma'lumotlarini uzatadigan har qanday uchinchi tomon, bu erda ko'rsatilganidek, foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilishning bir xil yoki teng darajasini saqlab turishi shart.

Ushbu ishlov beruvchilar tomonidan xizmat ko'rsatish darajasi to'g'risidagi bitim (SLA) shartlariga riyoa qilish, nazoratchi majburiyatlarining bajarilishining dalili bo'lib xizmat qiladi.

Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda biz shaxsiy ma'lumotlarni huquqni muhofaza qilish organlariga va boshqa vakolatli organlarga etkazishimiz mumkin.

## 5. YOZUVLARNI SAQLASH

Kompaniya shaxsiy ma'lumotlarni faqat kerak bo'lganicha, shu jumladan mahsulot yoki xizmatlarni yangilash maqsadida yoki auditorlik maqsadlarida kerak bo'lgan holda, amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq saqlaydi. Shaxsiy ma'lumotlar kerak bo'lmay qolganda, jarayon davomida va undan keyin ruxsatsiz shaxslarning ma'lumotlarga kirishiga yo'l qo'ymaslik uchun, ularni maydalash yoki boshqa tasdiqlangan yo'q qilish usullari bilan yo'q qilinadi.

Biz saqlayotgan ma'lumotlarni himoya qilamiz.

Biz shaxsiy ma'lumotlarni yo'qotish, o'g'irlash, nusxalash va ruxsatsiz oshkor qilish, foydalanish yoki o'zgartirishdan himoya qilish uchun xavfsizlik choralarini ishlab chiqdik va ularni qo'llab – quvvatlaymiz. Shaxsiy ma'lumotlarni ko'rishni va ishlatishtni maxsus vakolatli xodimlar va vakolatli

xizmat ko'rsatuvchi provayderlar ro'yxati bilan cheklangan bo'lib, ular ushbu imkoniyatlar ularni o'z xizmat ishlarini bajarishlari uchun kerak.

## 6. COOKIE FAYLLARI

Cookie-fayllari bu nima? Cookie - fayllar bu veb-server tomonidan veb-brauzerda saqlash uchun yuborilgan kichik ma'lumotlar bo'lib, ularni keyinchalik ushbu veb-brauzerdan o'qish mumkin. Ular Sizning brauzeringizda, Sizning tanlovingizni eslab qolish uchun va har safar sahifaga tashrif buyurganingizda Sizni yangi tashrif buyuruvchi sifatida aniqlamasligi uchun, brauzeringizdagi tanlovingizni eslab qolish va siz uchun to'g'ri ma'lumotlarni (masalan, savatchangizdagi narsalarini saqlab qolish uchun) ko'rsatishga yordam berish uchun ishlatiladi va mo'ljallangan. Cookie-fayllardan saytning ba'zi sahifalaridan ishlatilish mumkin, shuning uchun biz saytimizning foydalanuvchilariga Sizni veb – saytimizning boshqa foydalanuvchilaridan ajratib olishimiz uchun va ko'proq moslashtirilgan veb – brauzer tajribasini taqdim etamiz.

Ba'zi cookie-fayllar navigatsiya qilish va sizga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish uchun faqat tashrifingiz davomida o'rnatiladi (ular "vaqtinchalik cookie-fayllar" deb ataladi). Boshqalari esa uzoqroq muddatlarga o'rnatiladi (ular "doimiy cookie-fayllar" deb ataladi), shunda brauzeringiz avvalgi tashrifingiz paytidagi sizning tanlovingizni eslab qolishi mumkin. Saqlangan cookie-fayllar qurilmangizga zarar etkaza olmaydi, anonim va brauzeringizga xosdir.

Siz brauzeringizda cookie-fayllarni o'chirib qo'yishingiz yoki bloklasseshingiz mumkin, ammo ba'zilarisiz bizning saytimiz ishlaymaydi. Cookie-fayllar haqida ko'proq ma'lumot olish uchun usbu saytni o'rganishingiz mumkin: [www.allaboutcookies.org](http://www.allaboutcookies.org)

## 7. KONFEDENTSIAL (MAXFIY) MA'LUMOTLARNI HIMoya QILISH

Kompaniya xavfsizlikka jiddiy yondashadi va Sizning konfedentsial ma'lumotlaringiz xavfsizligini ta'minlash uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni, shu jumladan konfedentsial ma'lumotlardan ichki foydalanishning qat'iy standartlariga riousha qilishni va ma'lumotlarni saqlash texnologiyalaridan foydalanishni ta'minlaydi.

Kredit / debet karta orqali to'lovnini amalga oshirishda Mijoz shaklni to'ldirishi kerak bo'lgan paytda protsessing markazining veb – saytiga yo'naltiriladi. Sizning kredit / debet kartangizdan ruxsatsiz foydalanishni oldini olish uchun mijozning kartalari qisqartirilgan shaklda va xavfsiz server orqali Kompaniyaga yuboriladi. Muayyan istisno holatlarda, Kompaniya kredit yoki debet karta orqali amalga oshirilgan to'lovlarni qoplashi mumkin. Bunday holda, mablag'lar to'lov amalga oshirilgan kartaga qaytariladi.

Biz Sizni shaxsiy ma'lumotlaringiz bilan ishlashni faqat hizmat maqsadlariga muvofiq holda, haqiqiy ehtiyojga ega bo'lgan shaxslar bilan cheklaymiz. Sizning ma'lumotlaringizni qayta ishlaydigan shaxslar buni faqat ruxsat etilgan tarzda amalga oshiradilar va maxfiylik siyosatiga to'la riousha qilishlari shart.

Kompaniya vaqt – vaqt billan konfidentsial ma'lumotlarni o'zi bilan affilashgan yoki uchinchi tomon bo'luvchi xizmat ko'rsatuvchi provayderlariga va Kompaniyaga aloqador bo'limgan birlashgan marketologlarga etkazishi mumkin. Ushbu ma'lumotlar shaxsiy maqsadlar uchun, masalan, mijozlarga taqdim etiladigan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni qo'llab – quvvatlash, mijozlarning hisob raqamlariga xizmat ko'rsatish, nazorat va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish, sud so'rovnomalari, qarorlarini yoki boshqa rasmiyatlarni bajarish uchun va kerak bo'lganda, Kompaniyaning huquqlari yoki mulkini himoya qilish uchun uzatilishi mumkin.

## **8. SIZNING ROZILINGINGIZ**

Savdo hisobini ro'yxatdan o'tkazish, veb – saytimizga va onlayn savdo tizimimizga kirish orqali Siz Mijozlar shartnomasi shartlari va ushbu maxfiylik Siyosatini qabul qilasiz va ushbu Siyosat qoidalariga muvofiq shaxsiy ma'lumotlaringizni toplash, saqlash, ishlatish va oshkor qilish uchun Kompaniyaga rozilik bildirasiz.

## **9. SO'ROVLAR VA SHIKOYATLAR**

Umid qilamizki, bizning Mijozlarni qo'llab – quvvatlash guruhimiz yoki muvofiqlik bo'limi Sizning ma'lumotlaringizdan foydalanish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan har qanday savol yoki muammoni hal qila oladi.

Agar sizda maxfiylik bilan bog'liq savollaringiz bo'lsa, ushbu maxfiylik siyosatida qarashli savollaringiz bo'lsa yoki shaxsiy ma'lumotlaringizdan qanday foydalanishimiz haqida boshqa shubhalarining bo'lsa, biz bilan bog'laning. Biz bilan bog'lanishingiz uchun elektron manzil: [support@help.fxclub.org](mailto:support@help.fxclub.org).